

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**O'ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60410100 – Iqtisodiyot
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60410100 – Iqtisodiyot

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**O'ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: BERDIYAROV ILHOM HAYRULLAYEVICH

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi



A'zo: MATTHEW HOLLOW

University of York

fan doktori (DSc), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260011
Xulosa raqami	447
Xulosa sanasi	08.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"O'ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Zulfiyaxonim ko'chasi, 27-uy. Guvohnoma: MAS № 0000068, 08.06.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Iqtisodiyot
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60410100
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000068, 08.06.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60410100 – Iqtisodiyot
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60410100 – Economics
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60410100 – Экономика
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek, rus
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Iqtisodchi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	140 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Zulfiyaxonim ko'chasi, 27-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Qisman muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Qisman muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Qisman muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishida mezonlarning aksariyati talab darajasida ta'minlangan, biroq ayrim indikatorlar bo'yicha kamchiliklar aniqlanganligi sababli 1.2-mezon qisman muvofiq deb baholangan. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma va boshqaruv mexanizmlari asosan shakllantirilgan, ammo istiqbolli rivojlantirish rejasi to'liq yakunlanmagan. Taqdim etilgan hujjatlarga ko'ra, rejaning 30 ta yo'nalishidan 15 tasi (50 foizi) bo'yicha maqsadlar, vazifalar hamda ularning bajarilishini baholash mezonlari belgilangan bo'lsa-da, hujjat to'liq rasmiylashtirilmagan. Bu holat strategik rejalashtirishning mazmuniy asosi mavjudligini, biroq uning to'liqligi va hujjatlashtirish darajasi talab etilgan darajada emasligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ichki sifatni ta'minlash mexanizmlarining mavjudligi va ularning amaliyotga joriy etilgani ijobiy baholanadi. Demak, tashkiliy-boshqaruv tizimining asosiy elementlari shakllangan bo'lib, aniqlangan kamchilik istiqbolli rivojlantirish rejasini to'liq ishlab chiqish va rasmiylashtirish, shuningdek, sifatni ta'minlash jarayonlarini yanada takomillashtirish orqali bartaraf etilishi mumkin.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha ta'lim dasturi mazmunining asosiligi tahlil qilinganda, yo'nalishdagi mezonlarning aksariyati (15 ta) talab darajasida ta'minlangan, biroq ayrim indikatorlar bo'yicha kamchiliklar aniqlanganligi sababli 2.2-mezon qisman muvofiq deb baholangan. Ta'lim dasturining asosiy tarkibiy elementlari shakllantirilgan bo'lsa-da, dastur maqsadlari hamda kutilayotgan o'quv natijalarining oliy ta'lim tashkilotining akademik profiliga muvofiqligi yetarli darajada asoslanmagan. Shuningdek, dastur maqsadlari va o'quv natijalarining xalqaro mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiqligini tasdiqlovchi tahlillar, so'rovlar yoki boshqa dalillar yetarli

darajada taqdim etilmagan. Bu holat ta'lim dasturi mazmunining tashqi validatsiyasi yetarli darajada ta'minlanmaganini ko'rsatadi. Iqtisodiyot yo'nalishi jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar profiliga ega universitetda amalga oshirilayotganini hisobga olganda, dastur maqsadlarining muassasa akademik profili bilan uzviy bog'liqligini aniq dalillar asosida asoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, ta'lim dasturi mazmunining asosiy tuzilmasi shakllantirilgan bo'lib, aniqlangan kamchilik dastur maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalarining akademik profil hamda mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiqligini ishonchli dalillar bilan asoslash orqali bartaraf etilishi mumkin.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish va baholash tizimi tahlil qilinganda, yo'nalishdagi mezonlarning aksariyati (10 ta) talab darajasida ta'minlangan, biroq ayrim indikatorlar bo'yicha kamchiliklar aniqlangan. O'quv jarayonini tashkil etishning umumiy tizimi shakllantirilgan bo'lsa-da, o'quv dasturlari (sillabuslar)ni ishlab chiqishda ish beruvchilar, talabalar va soha mutaxassislari ishtirok etganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar yetarli darajada taqdim etilmagan. Shuningdek, amaliyot bazalari sifatida ommaviy axborot vositalari (OAV) sohasidagi tashkilotlarning aniq belgilanmagani e'tiborni tortadi. Jurnalistika profiliga ega oliy ta'lim muassasasida iqtisodiyot yo'nalishini amalga oshirishda ham amaliyot bazalarining aniq belgilanishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash tizimining asosiy mexanizmlari mavjud bo'lsa-da, o'quv jarayonini shakllantirishda manfaatdor tomonlar ishtirokining hujjatlar bilan to'liq tasdiqlanishi maqsadga muvofiq. Demak, o'quv jarayoni va baholash tizimining asosiy elementlari shakllantirilgan bo'lib, aniqlangan kamchiliklar sillabuslarni ishlab chiqishda manfaatdor tomonlar ishtirokini hujjatlar bilan asoslash hamda amaliyot bazalarini aniq belgilash orqali bartaraf etilishi mumkin.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha talabalar faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimi tahlil qilinganda, yo'nalishdagi mezonlarning aksariyati (11 ta) talab darajasida ta'minlangan, biroq ayrim indikatorlar bo'yicha kamchiliklar aniqlangan. Talabalarni qabul qilish va qo'llab-quvvatlash tizimining asosiy elementlari shakllantirilgan bo'lsa-da, qabul parametrlarini belgilashda Axborot-resurs markazining imkoniyatlari va sig'imi talabalar soniga nisbatan yetarli darajada asoslanmagan. Bu holat mavjud resurslar va talabalar kontingenti o'rtasidagi muvozanatni yanada

puxta tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha qabul parametrlarining oliy ta'lim tashkilotining akademik profili bilan uyg'unligi yetarli darajada asoslanmagan. Bundan tashqari, talabalar harakati hamda murojaat va shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlariga oid ayrim hujjatlarni to'liq rasmiylashtirish zarur. Demak, talabalar faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimining asosiy elementlari shakllantirilgan bo'lib, aniqlangan kamchiliklar qabul parametrlarini mavjud resurslar va akademik profil bilan yanada asosli muvofiqlashtirish hamda tegishli hujjatlarni to'ldirish orqali bartaraf etilishi mumkin.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha inson resurslari salohiyati tahlil qilinganda, yo'nalishdagi mezonlarning aksariyati (9 ta) talab darajasida ta'minlangan, biroq ayrim indikatorlar bo'yicha kamchiliklar aniqlangan. Kadrlar tizimining asosiy elementlari shakllantirilgan bo'lsa-da, iqtisodiyot ta'lim dasturi doirasida dars mashg'ulotlarini olib boruvchi professor-o'qituvchilarga qo'yiladigan mutaxassislik va kasbiy kompetensiya talablari yetarli darajada aniqlashtirilmagan. Shuningdek, yangi pedagog kadrlarni jalb etish strategiyalari (tanlov, konkurs, grant va boshqa mexanizmlar orqali) hamda ishga qabul qilish va kadrlar zaxirasini shakllantirish tartiblari to'liq asoslanmagan. Bu holat inson resurslarini rejalashtirish tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Iqtisodiyot ta'lim dasturining sifatli amalga oshirilishi uchun aynan mazkur yo'nalishga mos mutaxassislik va amaliy tajribaga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlanganlik muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, inson resurslari tizimining asosiy elementlari shakllantirilgan bo'lib, aniqlangan kamchiliklar professor-o'qituvchilarga qo'yiladigan mutaxassislik va kompetensiya talablarini aniq belgilash hamda kadrlarni jalb etish strategiyalarini asoslash orqali bartaraf etilishi mumkin.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha moddiy-texnik ta'minot tahlil qilinganda, yo'nalishdagi mezonlarning aksariyati (23 ta) talab darajasida ta'minlangan, biroq ayrim indikatorlar bo'yicha kamchiliklar aniqlanganligi sababli 6.4-mezon qisman muvofiq deb baholangan. Moddiy-texnik bazaning umumiy holati ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yetarli bo'lsa-da, inklyuziv ta'lim va axborot-resurs ta'minoti bo'yicha ayrim kamchiliklar mavjud. Xususan, iqtisodiyot ta'lim yo'nalishiga qabul qilinadigan talabalar uchun zarur Brayl alifbosidagi darslik va o'quv qo'llanmalarini Toshkent

davlat iqtisodiyot universitetidan olish rejalashtirilgan bo'lib, mazkur resurslar oliy ta'lim tashkilotining o'zida mavjud emas. Shuningdek, Axborot-resurs markazidagi o'quv zalining 18 o'rinli sig'imi rejalashtirilayotgan talabalar kontingentiga nisbatan yetarli darajada emasligi aniqlangan. Ushbu holatlar moddiy-texnik va axborot-resurs ta'minotini talabalar soniga mos ravishda yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Demak, moddiy-texnik bazaning asosiy elementlari shakllantirilgan bo'lib, aniqlangan kamchiliklar inklyuziv ta'lim resurslarini oliy ta'lim tashkilotining o'z bazasida yaratish hamda Axborot-resurs markazining sig'imini rejalashtirilayotgan talabalar kontingentiga muvofiqlashtirish orqali bartaraf etilishi mumkin.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Istiqbolli rivojlanish rejasi to'liq shakllantirilmagan va rasmiylashtirilmagan (30 ta yo'nalishdan 15 tasi, 50% bo'yicha maqsad va baholash mezonlari belgilangan) — 1.2-mezon qisman muvofiq.
- ✓ Dastur maqsad va o'quv natijalarining muassasa akademik profiliga hamda xalqaro mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiqligi yetarlicha asoslanmagan — 2.2-mezon qisman muvofiq.
- ✓ O'quv dasturlari (sillabuslar) manfaatdor tomonlar ishtirokida ishlab chiqilganligi asoslanmagan; ommaviy axborot vositalari sohasidagi amaliyot bazalari aniq belgilanmagan.
- ✓ Iqtisodchi kadrlarga qo'yiladigan mutaxassislik va kompetensiya talablari to'liq aniqlanmagan; inklyuziv resurslar (Brayl adabiyotlari) oliy ta'lim tashkilotining o'zida mavjud emas va ARM sig'imi talabalar soniga yetarli emas — 6.4-mezon qisman muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Istiqbolli rivojlanish rejasini to'liq shakllantirish va rasmiy hujjatlashtirish.
- ✓ Dastur maqsad-natijalarini muassasa akademik profili va mehnat bozori ehtiyojlari bilan muvofiqligini dalillar (tahlil, so'rovlar) bilan asoslash.
- ✓ Sillabuslarni manfaatdor tomonlar ishtirokida ishlab chiqishni asoslash va amaliyot bazalarini aniq belgilash.

- ✓ Iqtisodchi kadrlarga qo'yiladigan talablarni aniqlash, kadrlarni jalb qilish strategiyalarini belgilash hamda inklyuziv resurslar va ARM sig'imini talabalar soniga muvofiqlashtirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti" davlat muassasasida 60410100 – "Iqtisodiyot" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar kompleks tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv, o'quv-uslubiy va moddiy-texnik asoslar asosan shakllantirilgan bo'lib, barcha yo'nalishlar (bob) muvofiq deb topilgan. Shu bilan birga, ayrim mezonlar bo'yicha qisman muvofiqlik qayd etilgan: istiqbolli rivojlanish rejasini to'liq rasmiylashtirish (1.2), dastur maqsadlarining akademik profil va mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiqligini asoslash (2.2) hamda inklyuziv resurslar va axborot-resurs sig'imini talabalar soniga muvofiqlashtirish (6.4) talab etiladi. Shuningdek, sillabuslarni manfaatdor tomonlar ishtirokida ishlab chiqishni asoslash, amaliyot bazalarini aniq belgilash va iqtisodchi kadrlarga qo'yiladigan talablarni aniqlashtirish tavsiya etiladi. Aniqlangan kamchiliklar dastur mazmunining mohiyatini inkor etmaydi va tegishli hujjatlarni to'ldirish hamda resurslarni muvofiqlashtirish orqali bartaraf etilishi mumkin. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlariga mos keladi. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	05.06.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	2-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

